

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**6**  
**2020**



## MUNDARIJA

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....7**

Сиддик ҚАҲҲОРОВ, Дилшод МИРЗОЕВ, Азизбек САЙФУЛЛАЕВ. Мутахассислик фанларни ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг ўзига хосликлари .....	7
Валихожа АТАХОЖАЕВ, Султонпошша АБДУЛЛАЕВА. Кейс технологии как инновационный метод .....	10
Насиба СОБИРОВА. Функции методической службы в формировании профессиональных компетенций учителей .....	13
Раъно АЛИМАРДАНОВА. Ўзбек оилаларида ёш келин-куёв ўртасидаги соғлом муносабатларни таъминловчи миллий-психологик омиллар.....	16
Шахноза ШАРИПОВА. Таълим жараёнида инновацион технологиялар татбиқи.....	22
Nazokat SAYIDOVA, Gulbahor ZARIPOVA, Orifjon HAYDAROV. Oliy ta'lim jarayonining kredit-modul tizimida professor-o'qituvchi bilan talabalarning pedagogik hamkorligi .....	28
Шабон ФАРМОНОВА. Лойиҳавий таълим воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати.....	32
Шавқиддин АДАШБОЕВ. Олий таълим тизимини рақамлаштириш .....	36
Дилдора КАХХАРОВА. Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах .....	39
Шерзод АБДУРАҲМОНОВ. Бошланғич синф ўқувчиларида ватанга эътиқодни шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараённинг ўзига хос хусусиятлари .....	45
Гулноз ОЧИЛОВА, Гулнора МУСАХАНОВА. Ёшлардаги тадбиркорлик қобилияти шакллантирилганлигининг гендер хусусиятлари.....	50
Yoqubjon DJUMANAZAROV. Barkamol avlod tarbiyasida g'oyaviy-mafkuraviy muammolarning psixologik aspektlari va ularning profilaktikasi.....	53
Зубайда БАХРОНОВА. Шарқ мутафаккирлари қарашларида ахлоқий маданият масалалари.....	59
Хусен САФОЕВ. Современные особенности диалектического развития морально-психологического фактора.....	63
Ҳасан БАҲРОМОВ. Ибн Сино маънавий меросида таълим-тарбия масаласи.....	68
Ҳусниддин ҲОМИДОВ. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг омиллари.....	72
M.Sh.ХОЛИЕВА. Abu Ali ibn Sino shaxsi va uning ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	75
Шохруҳ САЛИХОВ, Тимур САЛИХОВ. Ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психо-физиологик асослари .....	80
Амрулло АБДУЛЛАЕВ. Буюк саркардаларнинг ҳарбий стратегиялари асосида ватан ҳимоячиларини тарбиялаш .....	84
Учқун БАЛИЕВ. Гуруҳ мураббийларининг талабалар билан тарбиявий жараёнини ташкил қилиш ...	87
Темир ОЛИМОВ. Талабаларда фуқаролик маданиятини ривожлантиришда маънавий-маърифий ишларнинг мазмуни .....	90
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студентов к семейным отношениям .....	93
Абдурашид ТУРҒУНОВ. Мактабгача ёшдаги болалар хотирасини ривожлантиришда психологнинг вазифалари.....	97
Жасур ОСТОНОВ. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе .....	102
Олмос АВЕЗОВ. Экстремал ва фавқулотда вазиятлар тўғрисида замонавий тушунчалар .....	105
Ҳалим ҲАСАНОВ. Ўқувчиларда мусиқий тасаввурлар шаклланишининг педагогик-психологик аҳамияти.....	110
Жамол НОСИРОВ. Спортчиларда ҳиссий-иродавий сифатлар шаклланишининг психологик хусусиятлари .....	113

**МАКТАБГАЧА ВА БОШИЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ.....118**

М.З.Файзуллаева, М.Э.Рустамова. Мактабгача таълим тизимининг сўнгги йиллардаги ривожланиш ва тараққиёти таҳлили .....	118
Umedjon JUMAYEV, Zarina ASHUROVA. Jahon maktabgacha ta'limi rivojida noan'anaviy mashg'uatlar: Valdorf, Montessori pedagogikasi.....	121

**FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH .....128**

Насиба БОЗОРОВА. Юридик лексикани ўрганишда детектив асарларнинг роли.....	128
--	-----

M.Sh.XOJIEVA

Buxoro davlat universiteti  
pedagogika kafedrası o'qituvchisi**ABU ALI IBN SINO SHAXSI VA UNING TA'LIM-TARBIYA TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN  
HISSASI**

*Ushbu maqolada Ibn Sino shaxsi va uning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi hamda ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynagani bayon qilingan. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy "uyg'onish"ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** tarbiya, axloq, odob, ma'rifat, etika, estetika, ilm.

*В этой статье описывается личность Ибн Сины и его вклад в образование и воспитание, а также его многоплановое плодотворное творчество и богатое наследие, сыгравшие большую роль в развитии мировой культуры. В своем творчестве, научной деятельности Ибн Сина сумел воплотить духовные достижения высокого культурного подъема, культурного "возрождения" в странах Центральной Азии, Ближнего и Среднего Востока, оказав тем самым огромное влияние на развитие просвещения, культуры во всем Восточном и европейском континентах.*

**Ключевые слова:** воспитание, мораль, нравственность, просвещение, этика, эстетика, наука.

*In this article, Ibn Sina personality and her educational background and Ibn Sina played a big role in the development of world culture with her multidisciplinary productive work, rich heritage. In his creative, scientific activity, Ibn Sina was able to embody the spiritual achievements of the high cultural upheaval, cultural "awakening" the countries of Central Asia, the near and Middle East, with which he has a great influence on the development of enlightenment, culture in the whole East and Europe.*

**Key words:** education, morality, manners, enlightenment, ethics, aesthetics, science.

O'zbek xalqining o'tmishdan yetib kelgan boy ma'naviy-madaniy merosi, o'lmas qadriyatlarini ajdodlarimizning, tarix sahifalaridan o'rin olgan buyuk mutafakkirlarimizning yuksak darajadagi intellektual qobiliyati va salmoqli mehnatlarining natijasidir. Mutafakkirlarning yaratgan ilmiy asarlari, pedagogik qarashlari va g'oyalari bugungi kungacha ko'plab rivojlangan mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotida o'zining muhim ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Shuningdek, fanlar integratsiyasi natijasida yangi fanlarning yuzaga kelishi, jamiyatda raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Ushbu vazifalar asosida jamiyatning ta'lim tizimiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri yuksak ma'naviy axloqli, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan, rivojlangan davlatlar darajasidagi yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi deb belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda buyuk mutafakkirlarning ilmiy va hayot faoliyatini o'rganish, ularning hayot yo'llaridan saboq olish muhim ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati, yunon ilmi, falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashlari muhim rol o'ynadi. Ibn Sino tarjimayi holida Forobiyning "Metafizika maqsadlari", "Fususul-hikam" [3, 99-102] kabi muhim risolalarni qunt bilan o'rgangani, ulardan keng foydalanganini ta'kidlab o'tadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Ko'p risolalari shaharma-shahar ko'chib yurish, urushlar, saroy to'polonlari, turli falokatlar tufayli yo'qolib ketgan. Ko'p manbalarda Ibn Sino, avvalo, tabib sifatida talqin etiladi, holbuki, tabobat uning ilmiy sohalarida eng muhimlaridan biridir, xolos. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitobush-shifo"dir

"Kitobush-shifo" ("Shifo kitobi") [6] 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

"Kitobul-insof" ("Insof kitobi") nomli 20 jilddan iborat bo'lgan asari bizgacha yetib kelmagan, chunki Isfahondagi yong'inda yo'qolgan.

"Kitobun-najot" ("Najot kitobi") 4 katta qismdan – mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat.

"Kitob lisonul-arab" ("Arab tili kitobi") 10 jildni tashkil etadi.

"Donishnoma" fors tilida yozilgan bo'lib, 4 qismni – mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga oladi.

Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy

obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifoda etuvchi "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon" [5] kabi falsafiy qissalar yaratgan. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors she'riyatida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo'lib, ruboiylari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qit'alar ham yozgan.

Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi "Urjuza" nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta'limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o'zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog'liq holda, anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko'tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o'simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg'a sura oldi.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan "Kitob al-qonun fit-tibb" ("Tib qonunlari"), "Kitobul-qulanj" ("Ichak sanchiqlari"), "Kitobun-nabz" ("Tomir ko'rish haqida kitob"), "Fujul-tibbiya joria fi majlisih" ("Tib haqida hikmatli so'zlar"), "Tadbirul-manzil" ("Turar joyning tuzilishi"), "Fil-hindubo" ("Sachratqi o'simligi haqida"), "Risola fidasturit-tibbiy" ("Tibbiy ko'rsatmalar haqida risola") [1, 62] kabi asarlari mavjud. Shu o'rinda, Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy "uyg'onish"ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. U o'z davrida Sharq va Yevropada "Shayx ur-ra'is", "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Hayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uyg'onish davri miniatyura va suratlarida Ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemey, Yevklid bilan bir qatorda tasvirlangan.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshladi. "Tib qonunlari" asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. "Kitob ush-shifo"ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar Ibn Sinoning Sharq adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatganligini, chuqur falsafiy mazmuni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki berganligini ko'rsatadi.

Ibn Sino xalq orasida shu darajada hurmatga sazovor bo'ldiki, u qahramonga aylanib ketdi. Sharq xalqlarida uning to'g'risida turli hikoya, rivoyat, afsonalar vujudga keldi. Jahon olimlari Ibn Sino asarlari, uning faoliyati to'g'risida ko'pdan beri ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradilar. Hozirda jahonning deyarli barcha yirik tillarida Ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

Buyuk qomusshunos Abu Aln ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang-barangdir. Shu bilan bir qatorda esa, mazmun-mohiyati juda chuqur asarlari ham mavjud. Alloma o'z davridagi mavjud bo'lgan hamma fanlarda ham salmoqli iz qoldirgan. Ibn Sino dunyoda, birinchi navbatda, buyuk tabib sifatida mashhur bo'lgani bilan birga olimlar nazdida buyuk faylasuf sifatida ham hurmatli. Uning insonga, birinchi navbatda, praktik jihatdan zarur bo'lgan tibbiy asarlari olim nomini dastlab butun dunyoga taratdi va uni o'chmaslikka olib keldi. Ibn Sino tabibgina bo'lib qolmagan edi, u o'z davrining buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani, adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo edi. Uning aniq fan sohalaridagi asarlari hamda falsafa va adabiyot bobidagi katta xizmatlari haqli ravishda uni jahon fani va madaniyatning ajoyib namoyondasi deyishga huquq beradi. Uning falsafiy-estetik g'oya va qarashlari jahon madaniyati erishgan yutuqlar qatoriga kirdi. Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan biri shuki, u asarlarida o'z davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini ko'rinarli aks ettira oldi.

Ibn Sino insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma'rifat o'chog'ini yoqishga, ilmiy yo'lda og'ishmay kamolat hosil qilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga – xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o'zida aks ettirib, mujassamlantirishga va inson degan ulug' nomni yanada yuqori ko'tarishga chaqiradi. Ibn Sino ma'rufatparvar sifatida o'zida shoirlik qobiliyatini sezgan chog'laridayoq xalq o'rtasida tabobatni keng ko'lamda yoyishga intilganini ko'ramiz. Uning tibbiyotga oid dostonlari shundan dalolat beradi. Ibn Sino bu dostonlarini aruzning rajaz vaznida yozgan. Shuning uchun ba'zan bu asarlarni urjuza deb ham ataganlar. Shu vaznda u tibbiyotga atab bir qancha she'riy asarlar yozdi, hozircha, bular soni to'qqizta.

Ular quyidagilar:

1. "Sog'liqni saqlash - gigiyenaga oid urjuza".
2. "To'rt fasllar haqida urjuza".
3. "Anatomiyaga oid urjuza".

4. "Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza".
5. "Tajribadan o'tgan tibbiy narsalar haqida urjuza".
6. "Tibbiy nasihatlar yozilgan urjuza".
7. "Mantiqqa oid yozilgan urjuza".
8. "Aloqa haqida urjuza".
9. "Tabobat haqida urjuza".

Ibn Sino yozgan bu dostonlarning sakkiztasi tibbiyotga, bittasi mantiqqa oid asardir. Bu dostonlarning eng yirigi "Tibbiy doston" nomi bilan mashhur bo'lgan. Ibn Sino bu asarini yozganida hali u meditsina olamiga tanilmagan va o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarini yozmagan ham edi. Ibn Sinoning tabobatga oid bu dostoni uning bu sohadagi ilk asari edi. Bu bilan Ibn Sino ham tabobat, ham she'riyatga dadil qadam qo'ya oldi. Hatto u bu asari orqali o'z g'oyalari yoyishni ko'zda tutganlarini ifodalab shunday deydi: "Men bu urjuza - dostonga kamolat to'nini va husn saruposini kiygazdim, uni o'rganish osonroq va mashaqqati kamroq bo'lsin deb, to'qilishini oson va vaznini yengil qildim". Arab ma'rifatparvari va adibi Jurjiy Zaydonning ko'rsatishicha, rajaz vazni she'r vaznlarining eng avvalgisi va eng qadimgisidir. Bu vazndagi baytlar masnaviyga o'xshash qofiyadosh bo'ladi. Bu vazn o'z davrida xalqchil, odamlar orasida keng tarqalgan vazn bo'lgan. Har kim ham bu vaznda she'r ayta olgan, keyinchalik bu bahr kengayib, urjuza deb ataladigan, qasida va she'rlar bitilgan. Odatda, gapga usta har bir arab bu yo'l bilan she'r ayta olgan.

Ibn Sino dostonlarining eng yirigi bo'lgan "Tibbiy doston" [3] 1956-yili Parijda va mantiq haqidagisi 1910-yili Qohirada nashr etilgan. Tibbiy doston qisqa nasriy muqaddima bilan boshlanib, keyin nazmiy yo'lda davom etadi. Nashr etilgan nusxaga ko'ra tibbiy dostonda 1326 bayt bo'lib, 2652 yo'l she'rdan iborat. U yerda muallif ozgina nazmiy muqaddima (o'n olti bayt)dan so'ng nazariy meditsinaga o'tadi, bunga 705 bayt bag'ishlangan, so'ng amaliy meditsinaga o'tadi, bunga esa 605 bayt bag'ishlangan. Undan tashqari Ibn Sino falsafiy she'rlar ham yozgan, bu borada uning yigirma bayt, ya'ni qirq yo'llik nafs-jon haqidagi mashhur she'ri ham bor. Ibn Sinoning bu she'ri kichik hajmli bo'lishiga qaramay, ko'p faylasuflar unga sharhlar yozishgan, u bir necha bor nashr ham etilgan.

Nasr yo'lida Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan mashhur asarlaridan "Hayy ibn Yaqzon", "Risolat-tayr", "Salomon va Ibsol", "Yusuf" kabi qissalarini aytish mumkin. Qissa deganda hozirgi arab adabiyotida hikoya janrini tushunamiz. Lekin o'rta asrda qissa so'zi doston, povest ma'nosida ham ishlatilgan. Odatda qadim Sharq adabiyotida kichik hajmdagi prozaik asar bo'lsa qissa janriga kiravergan. Shuning uchun ham Ibn Sino "Hayy ibn Yaqzon", "Salomon va Ibsol" va "Yusuf" asarlarini qissa deb atagan. Bu qissa 1174-yilda Ibn Azro tomonidan she'r bilan ibroniy tiliga tarjima qilinib, "Hayy ibn Maqiz" qissasi nomi bilan mashhur. Bu tarjima 1736-yili Istanbulda bosilgan [2, 132].

Ibn Sinodan o'n ikki yil keyin vafot etgan shogirdi Abu Mansur Husayn ibn Muhammad ibn Zaylo al-Isfahoniy ustodining bu asariga sharh bog'lagan. Undan keyin "Hayy ibn Yaqzon"ni noma'lum bir kishiforschaga tarjima qilib, sharh yozgan. Bu tarjima sharhning bir nusxasi Toshkentda, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti kitob fondida ham saqlanmoqda.

O'rta asrlarda faylasuflardan Ibn Tufayl va Shahabuddin Suhravardiylar Ibn Sinoning bu qissasidan ijodiy foydalanib, shu nomda tamoman boshqacha, original asar yaratdilar. Abu Ubayd al-Juzjoniyning yozishiga qaraganda, Ibn Sino bu asarini hijriyning 414-yili (milodiy 1023) Hamadonga yaqin bo'lgan Farajdan qal'asida to'rt oy qamalib yotgan paytida yozgan. Shayx bu vaqtlarda 44 yoshlarda bo'lgan. "Hayy ibn Yaqzon" qissasining tili, stili juda og'ir, ayrim hollarda tushunib bo'lmaydigan iboralar, ortiqcha sinonim so'zlar qatorlashtirilib yuborilgan bo'lib, tushunish va tarjima qilishni ancha mushkullashtiradi. Buning bir sababi bo'lib, albatta, bejiz bo'lmasligi kerak. Hatto Ibn Sinoshunos G'arb olimlaridan Mehren bunday qiyin formada fikr yuritishni zamondosh teologlar hujumiga uchramaslik uchun shunday qilgan, deb izohlaydi. "Ibn Sino bu risolalarini, - deb yozadi Mehren, - o'zining eng yaqin shogirdlari uchun yozgan. Bu asarlardan uning dunyoga bo'lgan qarashini ham bilish mumkin". "Hayy ibn Yaqzon" qissasining bosh qahramoni - birinchi shaxs Ibn Sinoning o'zi bo'lsa, uning suhbatdoshi, hikoya qiluvchi - Hayy ibn Yaqzon - Uyg'oq o'g'li Tirik - Aqlidir. Qissadagi beshta aloqa bo'limi insondagi bor bo'lgan beshta tashqi sezuv organi - ko'rish, ta'm bilish, hidlash, eshitish, sezishdir. Bular kishi organizmida tabiatni tushunishda, munosabatda bo'lishda misoli bir xabarchidir".

Ibn Sinoning bu qissasi ko'p jihatdan majoziy, ramziy bitilgan, kishilar fe'l-atvorini o'z ichiga qamrab ololgan va hayotiy gaplardan mulohaza yuritadigan adabiy asar hamdir. Mana shu nuqtayi nazardan qaraganimizda qissaning ikki planda - ham falsafiy, ham adabiy planda yozilganligini ko'ramiz. Darhaqiqat, Ibn Sino bu asarida ham ramz - ishoralar orqali, adabiy vositalar yordami bilan o'ziga tuyulgan ma'lum qarashlarini bayon qilgan.

“At-Tayr” – “Qush asari”. Ibn Sinoning adabiy ijodiga kiradigan asarlaridan biri uning “Risolat at-tayr” (“Qush risolasi”) [5]dir. Bu asar ham aslida ramz - ishoralar bilan yozilgan bo‘lib, olimning jon, haqiqat to‘g‘risidagi fikr va g‘oyalarini bilish uchun ham ahamiyatga molik.

Sharqning yirik siymalaridan Fariddin Attor “Mantiq ut-tayr”, ulug‘ Navoiy “Lison ut-tayr” kabi asarlarini yozishida Ibn Sinoning shu asari asosiy turtki bo‘lgan deyish mumkin. “Qush” haqida birinchi o‘laroq kichik asar yozgan Ibn Sinodan so‘ng bu sohada asar yozganlar uni yanada chuqurroq, yanada kengroq bo‘lishini ta‘minladilar. Ibn Sinoning bu asari bilan birinchi bo‘lib Umar ibn Sahlon Soviy (1145-yilda o‘lgan) shug‘ullanib, uni fors tilida sharhlagan. Undan keyin Sharqda unga juda ko‘p sharhlar bitilgan. Asarning nomi ko‘pincha “Risolat-at-tayr” [1, 62] atalsa-da, ba‘zan “Kitob shabaka va-t-tayr” (“Tuzoq va qush kitobi”) deb ham atalib kelingan. Qoraxoniylar somoniylar sulolasini yiqitgandan so‘ng, Ibn Sino Buxoroda turolmay, o‘ziga qulayroq va tinchroq deb Xorazmga – Urganchga boradi. Ko‘p o‘tmay, u yerni kuchayib kelayotgan G‘azna hukmdori Mahmud G‘aznaviy o‘ziga bo‘ysundirishga urinib, Xorazmshohga tazyiq qila boshlaydi. Buni payqagan Ibn Sino Xorazmni tark etib, Niso, Abivard, Tus orqali Gurgonga keladi. Gurgonda yana Mahmud xavfi tug‘iladi. Keyin Ray, Hamadonda yashaydi, u yerda to‘rt oy qamalib chiqadi. Keyin Isfahonda yashaydi. Xullas, olim bir joyda tinchgina yashay olmay, shaharma-shahar kezadi, bir fitnadan qochib, ikkinchisiga uchraydi.

Tarixchilarning yozib qoldirishiga qaraganda, hatto Ibn Sinoning Xorazmdan qochib qolganini eshitgan Mahmud G‘aznaviy uning rasmini ishlatib, butun qo‘shni o‘lkalarga tarqatgan, qayerda shu rasm egasi ko‘rinsa, tutib unga yuborish kerakligini tayinlagan. Mana bu holatlarning hammasi ramziy ishoralar, tamsiliy iboralar bilan “Qush” risolasida o‘z aksini topgan. Asardagi tuzoq Mahmud G‘aznaviyning changali, qushlarning boshu qanotlarining ozod bo‘lishi esa, Xorazmshoh dargohidan o‘z ixtiyori bilan boshqa yurtga chiqishi, qushlarning oyoqlarida tuzoq qoldiqlarining qolishi va dushmanning izma-iz kelishidan qo‘rquv esa, qaysi o‘lka, qaysi shaharga borsa, hamon muhayyo bo‘lib turgan Mahmudning ta‘qibidir, qushlar uchib o‘tgan tog‘, vodiylar Ibn Sino qochib-keziy yurgan shaharlardir. Shu tariqa Ibn Sino bu asarida ramz bilan o‘z ahvoliga ishora qilgan.

“Salomon va Ibsol” qissasi. Abu Ali ibn Sinoning avvalgi ikki nasriy asari Sharq va G‘arb olimlariga ma‘lum bo‘lsa ham, lekin “Salomon va Ibsol” bilan “Yusuf” qissasi to‘ keyingi vaqtlargacha ko‘pchilik olimlarga deyarli ma‘lum bo‘lmay keldi. “Yusuf” qissasi bilan “Salomon va Ibsol” qissalarining bir-birlariga tematik bog‘liqligi Ibn Sinoning “Xutbayi tasliya”sini tashkil qilishga olib kelgan edi va natijada ikkalasi bir asar sifatida bir xil sarguzashtga duchor bo‘lgan edi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, bular Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko‘rmoqchi bo‘ladi, shunga odamlarni da‘vat qilib, uni ulug‘laydi. Insonning tabiatida bo‘ladigan shahvoniy hislari Salomonning xotini obrazi orqali beriladi. Bunda go‘yo istak, ya‘ni xotin aqlni (ya‘ni Ibsolni) egallamoqchi bo‘ladi. Lekin aql unga bo‘ysunmaydi. Shu jihatdan ham alloma Nasiruddin Tusiy Ibsolning xotindan o‘zini olib qochishi, aqlning o‘z olamiga tortishidir, deydi. “Salomonning xotini,- deydi Tusiy yana,- nafs bilan birlashib ketib, bir shaxsga aylangan, istak va g‘azabga tortadigan badan quvvatlariga o‘xshatmadir. Xotinning Ibsolga bo‘lgan ishqisi esa uning boshqa quvvatlarini egallagandek, aqlini ham egallashga bo‘lgan intilishiga o‘xshatmadir”. [4, 94-95] Ibn Sino asrlarining bari ma‘no mazmuniga boy, shuning uchun ham Ibn Sino yodi hali-hanuz yoshlar ongida mujassam. Uning asarlari ma‘no-mazmunga boy meros sanaladi. Yuqoridagi asarlar ketma-ketligi uning asarlarining naqadar bugunki kun ruhiyatiga mos ekanligidan bir ro‘yo hisoblanadi.

Abu Ali ibn Sino axloq va ta‘lim-tarbiya borasida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. Jumladan, qanoat deb, o‘ziga kifoya qiladigan narsaga erishishga aytiladi; buni bo‘shashganlik ham deyishadi. Qanoat kamtarlik va uncha-muncha narsani nazarga ilmaydigan xislat bilan hirs o‘rtasida bo‘ladi, deb tasvirlaydi. Sabrni esa, inson boshiga tushgan alam va chidab bo‘lmaydigan og‘riqni to‘ yengunga qadar ushlab turishga aytiladi. Kishini qabih va bemaza ishlarga qadam qo‘yishdan tutib turadigan va og‘riqni to‘ yengunga qadar ushlab turishga aytiladi.

Kishini qabih va bemaza ishlarga qadam qo‘yishdan tutib turadigan va uni yaxshi xulq va ishlarga yo‘llashiga hayo deyiladi.

Ma‘lumki Abu Ali ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini maxsus risolalarda talqin etgan. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o‘rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko‘proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq, qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta‘lim berganlar. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi Ibn Sino butun musulmon Sharqining qomusiy aqli, jahon ilmi va madaniyating eng mashhur namoyondalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta‘lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezon sifatida talqin

---

etilgan. Ibn Sinoning axloq bobidagi qarshlarida esa sof insoniy xislatlar, munosabatlar, odob-axloq qoidalari me'yorlarida o'z ifodasini topgan.

### Adabiyotlar

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti 2015y. 62 bet.
2. Sh.Shomuhamedov va boshq.Salomon va Ibsol: Sherlar, qissalar. –T., "Adabiyot va san'at",1980. -132 bet.
3. Nishonova K. Pedagogika tarixi. –T., 2005. 99-102 bet.
4. Nishonova S., Hoshimov K. Pedagogika tarixi. -T., 1996. 94-95 bet.
5. <http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/abu-ali-ibn-sino-axloq-talim-tarbiya-haqida>.
6. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/abu-ali-ibn-sinoning-ta-limiy-qarashlari>.